

MEHNAT MIGRATSIYA JARAYONIDA AYOLLARNING IJTIMOIIY- PSIXOLOGIK TRANSFORMATSIYASI



D.O.Axmedova

ISFT instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida dotsent v.b.,
sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Globalashuv jarayonida xotin-qizlarning migratsiyasi nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy omillarga bog'liq, balki ularning psixologik va tafakkur o'zgarishlariga ham bog'liqlik jihatlari ko'p. Xotin-qizlar migratsiya jarayonida yangi madaniy muhitga moslashish jarayonida ijtimoiy roli va tafakkuri o'zgaradi. Mazkur maqolada migratsiya jarayonida xotin-qizlar sotsial qiyofasining transformatsiyasini tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: migratsiya, transformatsiya, tafakkur, adaptatsiya, migrant, emigrant, gender, assimilyatsiya, integratsiya.

Jahonda migratsiya jarayonining ortishi immigrant va emigrant mamlakatlar uchun iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik va etnik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy migratsiya shakllari natijasida yuzaga kelayotgan muammolar bilan ishlashning yangicha usullari yaratilmoqda. Migratsiya – insonlarning turli iqtisodiy-ijtimoiy siyosiy sabablarga ko'ra yashash hududini bir joydan boshqa joyga ko'chirish holatlari fanda “aholi migratsiyasi” (lot. migratio – ko'chib o'tish) nomi bilan mustahkam o'rin oldi. Aholi migratsiyasi – bu aholining bir hududdan boshqa hududga, ba'zan katta guruhlar bo'lib va uzoq masofaga ko'chib o'tishini anglatadi [1]. Migratsiya jarayonida xotin-qizlar uchun an'anaviy rollar va dunyoqarashlarning qayta shakllanishiga olib keladi. Olimlar migratsiya na faqat iqtisodiy-ijtimoiy, balki shaxsiy va psixologik o'zgarishlarning manbai sifatida ham tahlil qilishgan.

Migratsiya jarayonida xotin-qizlar yangi jamiyatda o'zlarini yangidan namoyon etishlari zarur bo'ladi. Bu jarayonda ular nafaqat shaxsiy qiymatlarini saqlab qolish, balki yangi sharoitlarga moslashish bilan bog'liq yangi ijtimoiy qiyofani ham yaratishlariga to'g'ri keladi. Sotsiolog olimlar Piter Berger va Tomas Lukman o'zlarining mashhur “Reallikning ijtimoiy konstruksiyasi[2]” asarida yozishicha ijtimoiy qiyofa insonlarning ijtimoiy hayotidagi faoliyatini tushunishda muhim o'rin tutadi. Berger va Lukmanni fikricha, insonlar o'zaro muloqotlar va faoliyat orqali ijtimoiy qiyofani yaratadilar. Ijtimoiy qiyofani kundalik hayot davomida namoyon bo'lishi shaxsning kundalik faoliyatidagi harakatlarining avtomatlashuvini anglatadi. Insonlar ijtimoiy hayotda takrorlanuvchi faoliyatlar orqali o'z qiyofasini shakllantiradilar va bu qiyofa jamiyatda qabul qilinadi. Olimlarning fikricha ijtimoiy qiyofa o'z qiymatini faqat jamiyat uni qabul qilgandagina saqlab qolishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Ularning ijtimoiy qiyofa haqidagi nazariyasi migratsiya jarayonidagi xotin-qizlar transformatsiyasini ham izohlashga yordam beradi. Xotin-qizlar yangi sharoitga moslashib, ijtimoiy qiyofalarini yangilash orqali yangi rollarni o'zlashtiradilar.

XXI asrdagi yangilanishlar ilg'or xotin-qizlarning o'ziga xos sotsial qiyofasini shakllantirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan modernizatsiyalashuv jarayoni aksariyat davlatlarda oilaviy turmush tarzi ijtimoiy-psixologik asoslarini qayta qurilishiga olib keldi. An'anaviy oilaviy qadriyatlar tizimi transformatsiyasi oqibatida ayollarning hayotiy qadriyatlari ham o'zgardi.

Mehnatga layoqatlilik va reproduktiv yoshi xotin-qizlarda aynan bir paytda kechishi bois, ularda ma'lum mutaxassislikni egallab kasbiy mahoratga erishish hamda oila qurish va farzandlarni dunyoga keltirib ular tarbiyasi bilan shug'ullanish o'rtasidagi ziddiyatli vaziyatlarni shakllantiradi. Sotsiologiya fani nuqtai nazardan bu davr asosan individning ijtimoiy konstruksiyasidan kelib chiqib “yoshlik” va “o'rta yoshlilar” bosqichiga to'g'ri keladi. Bu borada o'z tadqiqotlarini olib borgan psixolog E.Erikson insonning sakkiz bosqichli hayotiy siklni ishlab chiqar ekan, uningcha, beshinchi (yoshlik) va oltinchi (yetuklik) bosqichida inson kasb tanlash, mos ish qidirish, hayotdagi turmush o'rtog'ini, oila qurish, farzand ko'rish va voyaga yetkazish bilan shug'ullanadi. Bu davrda erkaklar oilaviy hayoti kasbiy faoliyatiga to'siq bo'lmasdan davom etsa, ayollarda aksincha, “oila yoki ish” tanlovi, yoki “qo'shimcha mas'uliyat” muammolariga duch keladilar[3].

Etnograf Arnold va Gennep zamonaviy jamiyatlarda inson hayoti siklik rivojlanishi modeliga ko'ra ijtimoiy yetuklik, er-xotinlik va ota-onalik, ijtimoiy maqomning oshishi, kasbiy ixtisoslashish kabi iyerarxik bosqichlarni qamrab oluvchi pillapoyalardan ko'tarilib borishda ayollar erkaklar qatorida ijtimoiy-siyosiy faolligini namoyon etish uchun jamiyatda yetarlicha sharoitlar bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi[4].

Jamiyatlar o'rtasidagi madaniy farqlar migrantlarning shaxsiy qiyofasiga katta ta'sir qiladi. Ilmiy adabiyotlarda ko'rsatilishicha, migratsiya jarayonida xotin-qizlar o'zlarining an'anaviy ijtimoiy rollari va shaxsiy ongini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ladi (Anderson, 2022). Turli madaniy muhitga moslashish jarayonida ularning tafakkur va psixologiyasida transformatsiya jarayoni kuzatiladi (Garcia, 2019).

Xususan, kanadalik psixolog J. Berri tomonidan ishlab chiqilgan akkulturatsiya nazariyasiga ko'ra, akkulturatsiya ikkita asosiy muammodan iborat bo'ladi: madaniyatni saqlash (madaniy mansublikni saqlashning ahamiyati qay darajada tan olinadi) va madaniyatlararo aloqalarda ishtirok etish (qay darajada boshqa madaniyatga qo'shilish yoki "o'zinikilar" orasida qolishi kerak)... J. Berri akkulturatsiyaning to'rtta asosiy strategiyasini ajratgan: assimilyatsiya, separatsiya, marginallashish va integratsiya [5].

Assimilyatsiya deganda migrantning yangi madaniyatga mansublashishi, u mansub bo'lgan etnik ozchilikni inkor etish tushuniladi;

separatsiya ko'pchilik madaniyatini inkor etish va o'z etnik xususiyatlarini saqlab qolishni nazarda tutadi; J. Berriga ko'ra,

marginallik – o'zini ikkala madaniyatga ham mansub deb bilmaslik;

integratsiya – o'zini ikkala madaniyatga mansub deb bilishdir.

S. Bochner assimilyatsiya, segregatsiya, genotsid va integratsiya kabi migratsiya bilan birga kechadigan etnik jarayonlarning variantlarini tavsiflaydi.

Assimilyatsiya strategiyasida mavjud bo'lgan atamaviy nomuvofiqlikka e'tibor qaratish lozim. Etnik psixologlar yakdillik bilan assimilyatsiya deganda yangi madaniyatda "qorilib ketishni" tushunishadi. "Assimilyatsiya (etnografik) – bu bir millatning boshqasi bilan ulardan birining o'z tili, madaniyati va milliy o'ziga xosligini yo'qotgan holda qo'shib ketishidir".

Xotin-qizlar masalalari bilan atroflicha shug'ullangan G.Sillastening fikriga ko'ra, xotin-qizlarning sotsial mobillik jarayonlaridagi ishtiroki keng ma'noda – ayollarning jamiyat ijtimoiy tuzilmasidagi mavqeyini o'zgarishi va o'zgaruvchan hayotiy faoliyat sharoitlariga moslashuvini anglatadi, tor ma'noda – sotsial mobillik ayolning o'z lavozimiy va kasbiy maqomini o'zgartirish va yangi ijtimoiy va iqtisodiy muhitga moslashishdagi individual imkoniyatlarini yanada kengayishini anglatadi[6].

Bizningcha, G.Sillastening qarashlari ayrim G'arbiy Yevropalik olimlarning jamiyatdagi transformatsion jarayonlarda jinsning psixobiologik va fiziologik xususiyatlari erkak va ayol xulq-atvori modellarini shakllantiruvchi bosh omil ekanligi haqidagi fikrlariga zid ravishda ijtimoiy omillarni ko'rsatadi. Demak, jinsiy taqsimotni sinfiy differentsiatsiyaning davomi sifatida qabul qilish mumkin emas. Ushbu tushunchaning turli bo'laklarini "yutib" yubormasligi uchun ayollar sotsial mobillik jarayonlarining gorizont va vertikal yo'nalishida segregatsiya obyekt sifatida umumiy sinfiy taqsimotga singib ketmaydigan alohida kategoriyani sifatida qabul qilish ijobiy natija berishi mumkin.

Sotsial mobillik jarayonlarining gorizont segregatsiyasida kasblarning "erkaklarga xos" yoki "ayollarga xos"ligi aqidasidan kelib chiqib, ayollar ijtimoiy-siyosiy faolligini ma'lum sohalarida jamlashini anglatadi. Aksariyat hollarda bandlikning ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, oziq-ovqat ta'minoti, maishiy xizmat kabi sohalarida ayollar ulushi balandligi xotin-qizlarni monoton konveyerlik liniyalarda mehnat bilan band bo'lib qolishlariga olib keladi.

Stenford universitetining (AQSh) vakili ijtimoiy psixolog Elleot Aronson xotin-qizlar mashg'ulotlari borasida konservativ fikrlarni shakllantirgan ijtimoiy stereotiplar alohida individ xususiyatlarini chetlab o'tadi deb hisoblaydi. E.Aronsonning fikricha "guruh a'zolarining shaxsiy sifatleri farqlanmaydi va barcha yaxlit qolip doirasida tasniflanadi" deb ta'kidlaydi[7]. Demak, stereotiplik fikrlash jinsiy farqlanishda va rolli tafovutlar qoidalariga rioya etish aksariyat hollarda

odat tusiga kirib ulgurgan. Bunda maskulinlik ya'ni qarama-qarshi jinsga xos bo'lgan ruhiy, axloqiy va tana qismlarini o'xshatish va feminlik ya'ni an'anaviy ravishda ayollarga tegishli psixologik va xarakterli xususiyatlarga ega bo'lish tushunchalari erkaklar va ayollarga xos bo'lgan somatik, ruhiy va xulq-atvor xususiyatlari borasidagi bir standartli fikrlar yig'indisidan hosil bo'ladi. Rossiyalik sotsiolog Igor Semyonovich Kon tomonidan taklif etilgan maskulinlik va feminlik atamalari nafaqat ruhiy va xulq-atvorli balki bu ikki tushuncha atrofidagi ijtimoiy tasavvur va fikrlarni oydinlashtiradi. Ushbu ikki kategoriyaga ko'ra erkak va ayol ideal ta'riflanadi. Ammo, ayollar vertikal sotsial mobillik bo'yicha o'z maqomini oshirishida mavjud "ijtimoiy masofa" ni yengib o'tishlariga to'g'ri keladi[8].

Mehnatning ayrim sohalari "ayollarga xos"ligi aqidasi ayollarni tahqirlovchi mazmundan holi emas. Bu borada I.Gofmanning stigmatizatsiya (ijtimoiy tamg'a) nazariyasi muhim bo'lib, olim insonning jamiyatdagi ideal va real ijtimoiy mansubligi o'rtasidagi uzilishni o'rganib chiqqan. Bu mansublikning bu ikki turi o'rtasida uzilishi bo'lgan har qanday inson uningcha "tamg'alangan" "stigmangan"dir[9]. I.Gofman fikricha, inson qaysidir jihati bilan jamiyatda turg'un o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlarga mos kelmasa u tamg'alanadi. Gofmanning mazkur nazariyasini o'rgangan Dj.Ritser "Gofman u yoki bu vaziyat, makon va zamonda barchamiz tamg'alanib qolishimiz mumkinligi haqida gapiradi" — deb ta'kidlagan[10]¹.

Xotin-qizlar erkaklarga o'rtacha oylik maoshi pastligi va band bo'lganlarning muqobil kategoriyalari bo'yicha ham ijtimoiy darajalarini boy beradilar. Ayollar aksariyat hollarda ikkilamchi mehnat bozorida vaqtincha yoki to'liqsiz ish kuni doirasida band bo'ladilar. Demak, xotin-qizlar qisman bu tanlov oila va bolalarning asosiy tashvishini zimmasida bo'lgan ayollarning ixtiyoriy tanlovi bo'lsa, qisman ilojisizlikdan kelib o'z ijtimoiy holatlariga rozi bo'ladilar.

Jamiyatda xotin-qizlar sotsial maqomining transformatsiyasiga doir yana bir masala bu — ayollar emansipatsiyasi masalasidir barcha ijtimoiy hodisalar bilan bir qatorda ayollar emansipatsiyasi ijobiy va salbiy xususiyatlari egaligi bilan barcha yondashuvlar ichida ahamiyatga ega. Ayollarning erkaklar bilan teng huquqlarni o'rnatilishiga erishishi bu albatta ushbu jarayonning eng katta yutug'i bo'ldi. Huquqlar tengligi o'rnatilishi bilan aksariyat G'arbiy Yevropa davlatlarida xotin-qizlar o'z mustaqilligi va erkini qo'lga kiritildi deb hisoblaydilar.

Demak, emansipatsiyalashgan ayollar oilaviy-nikoh munosabatlarida avvalo xotin-qizlarning shaxsiy erki, ixtiyoridan kelib chiqib, tanlovni amalga oshirsalar, mehnat qilish va daromad topish sohasida erkaklar bilan yonma-yon turib muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishi imkoniyatini beradi va gender tenglikni ta'minlash borasidagi asosiy yondashuvlar biri deb, hisoblash mumkin.

Demak, xotin-qizlar migratsiya jarayonida yangi etno-madaniy muhitga kirganda, ularning ijtimoiy roli va shaxsiy tafakkuri jiddiy o'zgaradi. Mezbon mamlakatlardagi yangi sharoitlarga moslashish jarayonida xotin-qizlar o'zlarining an'anaviy gender rollariga qayta nazar tashlaydilar, bu esa ularning shaxsiy ongini o'zgartirishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Ravenstein E. The Birthplace of the People and the Laws of Migration. // The Geographical Magazine, 1876. № 3. P. 173-233.
2. Berger, P. i Lukman, T. (1966). Sotsialnoe konstruirovaniye realnosti.
3. Elkind D. Erik Erikson i vosem stadiy chelovecheskoy jizni / [Per. s. angl.] — M.: Kogito-sentr, 1996. — S.64.
4. Gennep, Arnold van. Obryady perexoda : Sistem. izuchenie obryadov / Arnold van Gennep. — M.: Vost. lit. RAN, 1999. — S.198.
5. Berry J.W., Sam D.L. Acculturation and Adaptation // Handbook of cross-cultural psychology. Vol. 3. Social behavior and applications. Boston, 1997. P. 291— 326.
6. Sillaste G.G. Izmeneniya sotsialnoy mobilnosti i ekonomicheskogo povedeniya jenshin. //Sotsis.- 2000.- № 5. — S.12.

¹ Каранг: Ритцер Дж. Современная социологическая теория. 5-изд. — СПб.: Питер, 2002. — С. 271.

7. Aronson E. Obщественное животноe. Vvedenie v sotsialnuyu psixologiyu. /per. s. angl. – M.: Aspekt-Press, 1999. – S. 307.
8. Kon I. S. V poiskax sebya. Lichnost i yeyo samosoznanie. – M.: Politizdat, 1984. – S.233.
9. Goffman E. Stigma. Englewood Cliffs. New York: Prentice Hall, 1963. – Pp.41-43.
10. Ritser Dj. Sovremennaya sotsiologicheskaya teoriya. 5-yeizd. – SPb.: Piter, 2002. – S. 271.